



## AQSHNING GEOGRAFIK O'ZIGA XOSLIKLARI, TABIIY BOYLIKLARI

*Irzayeva Sevinch*

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti talabasi*

*Ilmiy nazoratchi: Qurbonova Nasiba*

**Anotatsiya:** Maydoni –9519,4 ming km<sup>2</sup>. Aholisi (2018-y.) 328 mln. Poytaxti – Vashington. Amerika Qo‘shma Shtatlari jahon mamlakatlari orasida maydoni jihatidan 4-, aholisi soni bo‘yicha esa 3-o‘rinda turadi. Shuningdek, AQSH iqtisodiy, harbiy-siyosiy va ilmiy-texnologik qudrati bo‘yicha zamonaviy jahonning yetakchi davlatlaridan biridir. AQSH hududi 3 qismdan iborat: Shimoliy Amerika materigining o‘rta qismidagi kontinental shtatlar, Shimoliy Amerikaning shimoli-g‘arbida joylashgan Alyaska hamda Tinch okeandagi Gavayi orollari. AQSH 3 ta – Atlantika, Tinch va Shimoliy Muz okeaniga chiqish imkoniyatiga ega. U quruqlikda faqat Kanada va Meksika bilan chegaradosh. AQSH va Kanadaning chegarasi jahon bo‘yicha ikkita davlat o‘rtasidagi eng uzun chegara hisoblanadi. Bering bo‘g‘izi orqali AQSH Rossiya bilan chegaradosh.

**Kalit so'zlar:** AQSh, geografiya, aholi, tabiiy resurslar, maydon, yillik yog‘in, etnik tarkib, relyef, iqlimi.

AQShning geografik o‘rni tarixning barcha bosqichlarida mamlakatning rivojlanishiga qulaylik yaratgan. Bu, avvalo, dengiz chegaralarida (12 ming km) ajoyib tabiiy bandargohlarning mavjudligi, ayniqsa mamlakat hududining Atlantika va Tinch okeanlari orasida joylashganligi bilan bog‘liq. Kanada bilan quruqlik chegaralari ham tabiiy chegaralar, ya‘ni daryo va ko‘llar orqali o‘tadi va savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga qulayliklar tug‘diradi. Davlat tuzumigako‘ra, AQSh 50 shtat hamda alohida federal okrugdan iborat federativ respublikadir. Har bir shtat o‘z konstitutsiyasiga, qonun chiqaruvchi va ijrochi hokimiyat organlariga, saylab qo‘yiladigan gubernatoriga, shuningdek, o‘z ramziy belgisiga ega.

Kolumbiya federal okrugi hududida mamlakat poytaxti – Vashington shahri joylashgan bo‘lib, unda 600 ming aholi yashaydi. AQSH tomonidan boshqariladigan bir qator hududlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: AQSH hududlari: Virgin orollari, Puerto-Riko, SHarqiy Samoa. Harbiy baza hududlari: Guam, Miduey, Jonston va Send, Pal‘mira, Jarvis, Kingmen-Rif, Xoulend, Beyker, Navassa. AQShning ikki tashqi qo‘shnisi mavjud bo‘lib, bu davlatlarning har ikkisi ham uning siyosatini to‘liq qo‘llaydi. Uch davlat NAFTA tashkiloti tarkibiga kiradi.



Bu esa uning siyosiy qo'shnihilik holatining ijobiy xususiyati bo'lib hisoblanadi. Kanada (asosiy quruqlikda 64160 km.lik chegara + 2477 km.lik Alyaska yarim orolidagi chegara) va Meksika (3326 km) oralig'idagi chegara hududlar asosan tabiiy geografik ob'ektlar (tog'lar, daryo va ko'llar) orqali o'tgan. Bu holat qo'shni davlatlar bilan deyarli tabiiy to'siqlarsiz aloqa o'rnata olishlariga imkon beradi. AQSHning suv hududlari orqali bitta qo'shnisi mavjud – Bering bo'g'ozida joylashgan Ratmanov va Kruzenshtern orollari oralig'idan Rossiya – AQSH chegaralari o'tadi. Tarixiy rivojlanishida uch bosqich alohida ahamiyatga ega:

Birinchi bosqich – yevropaliklar mustamlakasidan to mustaqillikkacha bo'lgan davr.

Ikkinchi bosqich – davlatchilik asoslari ishlab chiqilgan davr.

Uchinchi bosqich – hozirgi maydoni shakllangan davr.

1783 yil Angliyaning Amerikadagi koloniyasi o'z siyosiy mustaqilligini e'lon qildi. Asosan zamonaviy AQSH hududining shimoli-sharqiy va sharqiy qismlarini egallagan g'olib shtatlar keyingi davrlarda o'z hududlarini kengaytirish maqsadida bu yerdagi turli davlatlarga tegishli bo'lgan bir qism yerlarni sotib olgan bo'lsa (masalan: Frantsiyadan Luizianani, Rossiyadan Alyaskani), janubiy va markaziy shtatlarning katta qismini esa turli urushlar natijasida Ispaniya, Meksika kabi davlatlardan tortib oldi. XIX asrning oxirlarida esa qabul ilingan Monro doktrinasi asosida avval meridional yo'nalishda butun Amerika qit'asini, keyinchalik esa kenglik bo'ylab “anakonda” strategiyasini qo'llagan holda Yevropa, Osiyo, Afrika va Avstraliya hamda Okeaniya hududlari nazoratini sekin-astalik bilan qo'lga kiritdi. 2. Amerika Qo'shma Shtatlarining tabiiy resurslari va ulardan foydalanish. AQSH turli tabiiy sharoit, boy tabiiy resurslarga ega bo'lgan hududlardan tashkil topgan. Uning g'arbi tog'li va quruq, sharqi esa namgarchilik darajasi yetarli bo'lgan tekisliklardan tashkil topgan hududlar hisoblanadi. G'arbida Kordel'era tog'lari, sharqida Appalachi tog'lari, markazida Markaziy va Buyuk tekisliklar, janubi-sharq va janubda qirg'oqbo'yi past tekisliklari hisoblangan Atlantikabo'yi, Florida, Meksikabo'yi tekisliklari joylashgan. Eng baland nuqtasi – Flyaskada joylashgan Mak-Kinli cho'qqisi (6194 m), eng past nuqtasi esa Kaliforniyadagi O'lim vodiysi (-86 m) hisoblanadi. Hududining asosiy qismi mo'tadil va subtropik iqlim mintaqalarida joylashgan. Floridaning janubiy qismi va Gavayi orollari iqlimi uchun esa tropik iqlim xususiyatlari xos. Alyaska shimolida subarktika iqlimi xukmron. Turli iqlim mintaqalarida joylashganligi sababli vegetatsiya davri harorati miqdori (800 - 7500<sup>o</sup>), yillik o'rtacha yog'in miqdorida (500 – 2000 mm) katta tafovut mavjud. AQSH g'arb dunyosida toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir, uran zaxirasi bo'yicha



birinchi, gaz, mis, rux zaxirasi bo'yicha ikkinchi, neft, temir rudalar zaxirasi bo'yicha oltinchi o'rinni egallaydi. Ba'zi bir foydali qazilma turlari (yoki umuman yo'q) xrom, marganes, kobalt, nikel yetishmaydi. Ayni vaqtda ko'plab qazib olinayotgan konlar tugab borayapti (Asosan neft, tabiiy gaz va temir ruda konlari.) qSuv resurslari mamlakatning sharqiy qismida to'plangan. Bu yerdan AQSH ning bosh daryo arteriyasi Misisipi oqib o'tadi. U o'zining irmoqlari bilan birgalikda transport, energetika, sug'orish maqsadlarida yirik xo'jalik ahamiyatiga egadir. AQSH ning shimoliy-sharqiy qismida Kanada bilan chegaradosh hududda dunyodagi eng yirik ko'llar sistemasi-Buyuk amerika ko'llari joylashgan. Mamlakatda tabiiy unumdor tuproqli yerlar katta maydonni egallaydi. Ayniqsa AQShning markaziy qismi va preriyadagi qora tuproqli yerlar o'zlashtirilib mamlakatning asosiy donkor rayoniga aylantirildi.

Mamlakatning o'rmon resurslari XX asrning o'rtalariga kelib kishilarning xo'jalik faoliyati ta'sirida kuchli kesib yuborilgan. AQSH hududining 1/4 qismi o'rmonlar bilan qoplangan, so'nggi yillarda ikkilamchi o'rmonlar maydoni kengayib bormoqda. AQShning Alyaska yarim oroli va Kordilyera tog'lari o'rmonlar bilan qoplangan. 3. Amerika Qo'shma Shtatlarining aholisi va mehnat resurslari. AQSH aholisi soniga ko'ra jahonda Xitoy va Hindistondan keyin uchinchi o'rinda turishi hammaga ma'lum. Aholi soni shakllanishida immigratsiya katta ahamiyatga ega. Agar davlat hududi endi o'zlashtirilayotgan davrda bu yerga asosan yevropaliklar kelib o'rnashgan bo'lsa, keyingi davrlarda jahonning barcha mintaqalaridan migrantlarning ko'chib kelishi kuzatilmoqda. SHu sababli migratsion sal'do 3% ga teng. Aholining yillik tabiiy ko'payish darajasi ancha past – 5%. Tug'ilish darajasi 13% bo'lgan holda o'lim koeffitsienti 8% ni tashkil qiladi. koeffitsientining yuqori ko'rsatkichi asosan migrantlar orasidagi yuqori tabiiy o'sish ko'rsatkichlari sababli yuzaga kelgan. Buning natijasida uning yosh tarkibida bolalar – 19%, kattalar – 67%, qariyalar – 14% ni tashkil qiladi. Barcha iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar kabi AQSHda ham aholi o'rtacha umr ko'rish darajasi yuqori. Aholi o'rtasida o'rtacha umr ko'rish darajasi 79 yoshga teng bo'lib, ayollarda bu ko'rsatkich 81, erkaklarda esa 76 yoshni tashkil qiladi. Milliy tarkibida amerikanlar – 81,7%, afro-amerikanlar – 12,9%, osiyoliklar – 4,2%, tub aholi – 1%, boshqalar – 0,2% ga teng. Diniy tarkibida xristian dini katta salmoqni tashkil qiladi (protestantlar – 51,3%, katoliklar – 23,9%). Bundan tashqari, aholi orasida iudaistlar (1,7%), buddistlar (0,7%), musulmonlar (0,6%), ateistlar (4%) va turli din vakillari (17,8%) ham istiqomat qiladi.



Aholi AQSH hududi bo'ylab notekis taqsimlangan. O'rtacha zichlik 1 km<sup>2</sup>ga teng bo'lib, bu ko'rsatkich shimoliy sharqiy shtatlarda ancha yuqori, shimoliy shtatlarda esa past ko'rsatkich kuzatiladi. Aholisining 81% shaharlarda istiqomat qiladi. N'yu-York, Los-Anjeles, CHikago, X'yuston, Filadelfiya eng yirik millioner shaharlar bo'lib hisoblanadi. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanganligi natijasida bu yerda SHimoli-sharqiy (Bos-Vash), Ko'lbo'yi (CHipits), Kaliforniya (San-San) megalopolislari shakllangan. 4. Amerika Qo'shma SHtatlarning xo'jaligi va uning asosiy tarmoqlari. AQSH dunyodasanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi mamlakatdir. Mamlakat elektroenergiya ishlab chiqarish bo'yicha yetakchilik qilsa, neft, tabiiy gaz, ko'mirqazib olish va po'lat ishlab chiqarishda jahon mamlakatlar uchligiga kiradi. Bundan tashqari AQSH dunyoda ximiya sanoatining rivojlanishi darajasi bo'yicha, rangli metallar, avtomobil va samolyotlar, elektronika, elektrotexnika va aerakosmik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha yetakchilik mavqeini saqlab qolmoqda. AKSH dunyoda donli ekinlar ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi, qishloq xo'jaligixomashyosi eksporti bo'yicha esa dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Amerika iqtisodiyotining harakterli xususiyati kapital va ishlab chiqarishning yuqori darajada konsentrasiyalashuvidir. Amerikaning yirik korporosiyalari o'z ishlab chiqarish harakteriga ko'ra transmilliy hususiyatga ega. Jahondagi yirik 500 ta transmilliy korporosiyalarining 100 dan ortig'i Amerika korporosiyalari hisoblanadi. Ushbu korporosiyalar ro'yhatida «Cieneral Motors», «Exxon», «Ford Motor», «IBM» kabi korporosiyalar oldingi o'rinlarda turadi. AQShning xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlariga elektrotexnika va elektron sanoati (ayniqsa elektron hisoblash mashinalarining eng so'nggi turlarini ishlab chiqarish), aviakosmik, harbiy, atom va biotexnologiya kabi sanoat tarmoqlari kiradi. AKSH ilmiy va injener xodimlar soni, hamda ilmiy tadqiqot shuningdek tajriba konstruktorlik loyihalariga ajratilayotgan harajatlar bo'yicha ham yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar orasida alohida ajralib turadi.

#### References:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.,1997.
2. Abdullayev O. Iqtisodiy geografiyaga kirish. O'quv dasturi.-Namangan, 1993.
3. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya.-T., 2004.
4. Abirqulov Q.A. AQSHning tabiiy resurs salohiyati.-T. TDIU. 1998.
5. Soliev A.,Mahamadliev R. Iqtisodiy geografiya asoslari.-T., 1996.